

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar 835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi 838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari 841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition 847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati 850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent 854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari 857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi 862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar 868

ILMIY AXBOROT**Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar
va forsiy izofa haqida 871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik 876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni 880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi 884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari 887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida 890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri 894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi 899

Q.V.Yo'lichev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida
ironiyaning o'rni 903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq
leksemalar xususida 907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) 913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar 918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi 922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi 927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik 930

I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari 936



УО'К: 811.512.133'374

TILSHUNOSLIKDA MAYDON TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ ПОЛЯ В ЛИНГВИСТИКЕ****THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF FIELD IN LINGUISTICS****Naimjonova Iroda Ma'rufjon qizi¹** ¹Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Ganiyeva Shodiya Azizovna²** ²Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent,**Annotatsiya**

Tilshunoslikda maydon tushunchasi bir necha yillardan buyon olimlar tomonidan qiziqishlarga sabab bo'limoqda hamda o'rganilmogda. Aslida fizika fanida paydo bo'lgan bu termin, tilshunoslikka ham kirib keldi. Umumiyl leksik ma'noli so'zlarning bir guruh tarkibiga kirishi maydon hisoblaniladi. Biroq maydon nazariyasiga turli olimlar turlicha yondashganlar. Ushbu maqolada aynan tilshunoslikdagi maydon hamda semantik maydonning ahamiyati, olimlar tomonidan ushbu tushunchaga berilgan nazariy fikrlar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi. Tilshunoslikda semantik maydon tushunchasi katta ahamiyatga egadir. Nemis olimi J.Trier tomonidan ilk marotaba o'z maqolalari hamda asarlarida semantik maydon tushunchasi qo'llanilgan hamda olim har bir so'zning ma'lum maydonga tegishli bo'lishini ta'kidlaydi. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, olim semantik maydon terminini asarlarida "tushuncha maydoni" deya aytib o'tgan. Uning fikricha, borliqdagi barcha so'zlar ma'lum semantik maydonga mansub. Jahon tilshunosligida, ayniqsa, nemis tilshunosligida paydo bo'lgan maydon nazariyasi keyinchalik o'zbek tilshunosligiga ham kirib keldi. O'tgan asrning 90-yillarda semantik maydon nazariyasini o'rganish o'zbek tilshunosligiga ham keng ko'lamda kirib keldi. Shundan so'ng, so'zlarni ma'lum maydonga biriktira boshlandi.

Аннотация

В лингвистике понятие поля уже несколько лет вызывает интерес и изучается учеными. Фактически этот термин, появившийся в физике, вошел и в лингвистику. Полем считается группа слов, имеющих общее лексическое значение. Однако разные учёные подходили к теории поля по-разному. В данной статье представлена подробная информация о значении поля и семантического поля в лингвистике, а также теоретические взгляды ученых на это понятие. Понятие семантического поля имеет большое значение в лингвистике. Понятие семантического поля впервые использовал в своих статьях и работах немецкий учёный Ж.Триер, причём учёный подчеркивает, что каждое слово принадлежит определённому полю. Кроме того, можно сказать, что в своих работах учёный упоминал термин семантическое поле как «концептуальное поле». По его мнению, все существующие слова принадлежат определенному смысловому полю. Теория поля, появившаяся в мировом языкознании, особенно в немецком языкознании, позже вошла и в узбекское языкознание. В 90-е годы прошлого века исследование теории семантического поля вошло в узбекское языкознание в широком масштабе. После этого слова стали привязываться к определенному полу.

Abstract

In linguistics, the concept of field has been attracting interest and being studied by scientists for several years. In fact, this term, which appeared in physics, also entered linguistics. A group of words with a common lexical meaning is considered a field. However, different scientists approached field theory in different ways. This article provides detailed information about the importance of the field and the semantic field in linguistics, as well as the theoretical opinions given to this concept by scientists. The concept of semantic field is of great importance in linguistics. The concept of semantic field was first used by the German scientist J.Trier in his articles and works, and the scientist emphasizes that each word belongs to a certain field. In addition, it can be said that the scientist mentioned the term semantic field as "concept field" in his works. According to him, all words in existence belong to a certain semantic field. Field theory, which appeared in world linguistics, especially in German linguistics, later entered Uzbek linguistics. In the 90s of the last century, the study of the semantic field theory entered Uzbek linguistics on a large scale. After that, words began to be attached to a certain field.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, maydon, semantik maydon, lingvistik birlik, paradigm, fonema, morfema, leksema.

Ключевые слова: лингвистика, поле, семантическое поле, языковая единица, парадигма, фонема, морфема, лексема.

ILMIY AXBOROT

Key words: linguistics, field, semantic field, linguistic unit, paradigm, phoneme, morpheme, lexeme.

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslik sohasida e'tiborga loyiq rivojlanishlar bo'lmoxda. Tilshunoslik dunyo tillari, ularning tuzilishi, kelib chiqishi, bir-biridan farqi kabilarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslik sohasiga yildan yilga yangi mavzular kiritilib, olimlar tomonidan o'rganiqlmoqa. Maydon yoki semantik maydon tushunchasi ham mana shunday yangi hamda izlanishlar olib borilayotgan sohalardan biri sanaladi. Dastavval, fizika sohasida paydo bo'lgan ushbu termin, keyinchalik tilshunoslikka ham kirib keldi. Tilshunoslikda maydon nazariyasiga doir bir qancha ilmiy ishlar va tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo haligacha o'rganilishi talab etiladigan mavzu sanaladi. Semasiologiya fanida ushbu tushunchaning paydo bo'lishi asta-sekin so'zlarning mazmuniy maydonga kiritilishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maydon nazariyasi terminiga izoh berish, fikrlarni o'rganish, misollar yordamida oydinlik kiritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Jahon tilshunosligida, shuningdek, o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda maydon nazariyasi, so'zlarni bir umumi yuruhga, ya'ni maydonga birlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon tilshunosligida leksik maydon nazariyasi nemis olimi J.Trier nomi bilan bog'liq. Lingvistik birlıklarning ma'lum paradigmalarga birlashuvi natijasida tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga kelishi F.de Sossyur nomi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, tilshunoslikda "maydon" terminining to'liq shakllantirishiga yordam bergan tadqiqotlaridan biri bu L.Vaysgerberning ishlari bo'ldi. Maydon tushunchasining nazariy talqini I.Trir, G.Ipsen, V.Portsig, L.Vaysgerber, A.Yolles ishlarida ko'zga tashlanadi, keyinroq A.A.Ufimtseva, N.I.Filicheva, Yu.N.Karaulov, G.S.Shchur kabilalar ishlari bilan bu nazariya rivojlanтирildi. Shuni ta'kidlash lozimki, lingvistikaga maydon nazariyasi mazmuniy maydon tushunchasi sifatida kirib keldi.[2] Misol tariqasida, Yu.N.Karaulov semantik maydonlarning to'rtta muhim belgisini ko'rsatgan bo'lib, ular mavjudlik, uzyiylik, butunlik, tarixiylik belgilardir. Uning fikricha, umumi yema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi.[7]

NATIJA VA MUHOKAMA

Fizikadagi magnit maydoni nazariyasi asosida XX asrga kelib tilshunoslikda ham maydon tushunchasi kirib keldi. F.S.Safarovning tadqiqotida tilshunoslikdagi maydon tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: Maydon tushunchasi, dastlab, fizikada vujudga kelgan bo'lib, atama sifatida biror fizik hodisa ro'y beradigan fazo degan ma'noni ifodalaydi. Tilshunoslikda maydon atamasi umumi (invariant) ma'no asosida birlashib, o'zaro munosabatga kirishadigan lisoniy va nolisoniy vositalar sistemasiga nisbatan ishlataladi.[4] Aslida leksik maydon nazariyasi birinchi marta nemis olimi J.Trier tomonidan 1931-yil 12-martda ma'lum qilingan.[5] Trierning aytishicha so'zlar boshqa bir, ya'ni o'sha maydonga daxldor bo'lgan so'zlarga bo'lgan munosabati orqali o'z ma'nosini yaratadi. Bir maydonga tegishli bo'lgan so'zlarning birining ma'nosini kengayishi natijasida boshqa bir so'zning ma'nosini torayishiga olib keladi. Agar ma'lum so'z semantik o'zgarishga duchor bo'ladigan bo'lsa, leksik maydonlarning barcha so'zlar mazmuni o'zgaradi, Trierning nazariyasi bo'yicha leksik maydon bu oson aniqlanadigan yopiq yig'indi bo'lib unga hech qanday boshqa bir ma'no qo'shish mumkin emas.[4]

F.de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birlıklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatic va sintagmatic turlari mavjudligini ko'rsatgan edi. Lingvistik birlıklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. "Maydon" atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo'lib, jumladan, fizikada: Maydon - fizikaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi, fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hozirgi vaqtida maydon nazariyasi ekanligi qayd etiladi. Algebrada esa qo'shish, ko'paytirish va ularga teskari amallar - ayirish, bo'lish kiritilgan to'plam sifatida belgilanadi.[2]

Ushbu o'rinda lingvistik birlikka birozgina to'xtalib o'tmoqchimiz. Lingvistik birlik tilshunoslikda lisoniy birlik deb ham yuritiladi. Lisoniy birlik deganda fonema, morfema hamda leksemani tushunamiz, hamda bular orqali insonga ma'lum lingvistik xabar yetkazilsa, u lisoniy birlik deyiladi. Misol tariqasida fonemaning ma'no farqlovchi xususiyati sifatida *tosh-qosh* so'zlarini keltirishimiz mumkin. Bunda t tovushining o'rniga q tovushini qo'yadigan bo'lsak ma'no o'zgaradi.

Bunda fonema ma'no o'zgartiruvchi lisoniy birlik hisoblanadi. Ya'ni bu so'zlar orqali inson ongida har xil tasavvur paydo bo'ladi. Morfema esa ma'no anglatuvchi eng kichik lingvistik birlikdir. So'zga morfemik qo'shimcha qo'shilganda, ma'no o'zgarishi yoki turkumi o'zgarishi kuzatiladi. Misol uchun, *bog'bonlarga* leksik birligida bog' so'ziga -bon, -lar, -ga orqa qo'shimcha morfemalar qo'shilishi sababli ma'no o'zgargan, turkumi esa o'zgarmagan. Inson ongida shaxs otiga yo'nalganlik ma'nosini bildiruvchi lisoniy birlik paydo bo'ladi. Keyingi lingvistik birlik bu leksema bo'lib, ma'lum bir ma'no anglatuvchi leksik birlik sanaladi. Leksema inson ongida paydo bo'ladigan qandaydir bir shaxs, narsa-buyum, joy, voqeа, belgi kabilalar bo'lishi mumkin. Misol uchun, *qariya* leksik birligini eshitganimizda, ongimizda "yoshi ulug', keksa" insonni tasavvur qilamiz. Shunday qilib, yuqoridagi lingvistik birliklarning ma'lum paradigmalarga birlashuvi sababli tilshunoslikda yangi nazariya, ya'ni maydon nazariyasini vujudga keldi.

Vaysgerber fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatida emas, balki dunyonи intelektual shakli sifatida o'rganish zarur, uningcha, semasiologiya – ma'nolar xususidagi fan bo'lmay, tushunchalar haqidagi ta'limot bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslikda maydon nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning mualliflari maydonning mohiyatini turlicha talqin etdilar. Bu ishlardan kelib chiqqan holda, Yu.N.Karaulov maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

- a) maydon elementlarining o'zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o'xshashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantik korrelyasiyasi) obyektga bo'lgan munosabati nazarda tutildi;
- b) maydon elementlarining belgilanishi bir-biriga nisbatan farqlari asosida ba'zan bu xususiyat o'zaro almashinish sifatida ham ta'riflanadi;
- c) mazmuniy maydonlarning mustaqilligi (yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqadi);
- d) turli tillarda maydon xususiyatlarining o'ziga xosligi (tarixiy tarkibi, milliy jihatlari).[1]

Maydon lingvistik atama sifatida birinchi marta 1924-yilda nemis tilshunosi Gunter Ipsenning "Qadimgi Sharq va Hind-Yevropa" nomli asarida tilga olingan. Olim o'z ona tilidagi *bedeutungsfeld*, ya'ni "semantik maydon" birikmasini qo'llaganidan so'ng ushbu atama keng ommaga yetib bordi. Tilshunoslikda semantik maydon tushunchasini nazariy jihatdan asoslab berish borasida G.Ipsenning xizmatlari muhim o'r'in tutadi, lekin ushbu terminga amaliy jihatdan yondashgan va G.Ipsenning dastlabki maydon nazariyasida g'alizliklar borligini isbotlagan olim Y.Trir hisoblanadi. Trirga zamondosh bo'lgan nemis olimi V.Porsig ham semantik maydon bo'yicha tadqiqotlar olib bordi va Y.Trir nazariyasiga teskari bo'lgan ilmiy farazni ma'lum qildi. Ya'ni Y.Trir semantik maydonni paradigmatic tarzda shakllanishini ilgari surgan bo'lsa, V.Porsig esa sintagmatik usul orqali semantik maydonlar hosil qilinishini ko'zda tutuvchi nazariyani afzalliliklariga ko'proq to'xtaldi. V.Porsig keltirgan misolga ko'ra, *tishlamoq* leksemasi o'z-o'zidan *tish* leksemasini yodga soladi yoxud *yalamoq* leksemasi *til* leksemasini talab qiladi. Bu yerda V.Porsig shu kabi leksemalarning ma'nolarini tushuntirish jarayonida so'zlovchilar ular bilan matnlarda birga qo'llanuvchi leksemalarni inobatga olishlari kerakligiga ishora qiladi. Lingvistik maydon nazariyasiga oid eng puxta mulohazalar tilshunos olim L.Vaysgerberga tegishlidir. L.Vaysgerber qarashlariga ko'ra, til jamiyatdagи insonlarga maydon orqali ta'sir eta oladi va so'zlarning ahamiyati ham faqatgina maydon ichida mavjud bo'ladi.[3]

Maydon nazariyasi bo'yicha maxsus fikr bildirgan B.Yo'idoshev "XIX asrga kelib fizikadagi maydon nazariyasi ta'sirida tilshunoslikda ham maydon tushunchasining nazariy talqini yuzaga kelgan va tilshunoslikda, asosan, mazmuniy maydon sifatida ro'yobga chiqqan" ligini ta'kidlaydi. Dastlab, maydon nazariyasi tilning leksik sathida o'rganilib, tezauruslar yaratish, ideografik lug'atchilik amaliyoti uchun xizmat qilgan.[6]

O'zbek tilshunosligida til leksik sistemasidagi so'zlarni guruuhlarga ajratib o'rganishda 80-yillardan boshlab maydon tushunchasi qo'llanila boshlandi. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida maydon atamasi keng o'r'in ola boshladi. Masalan, M.Abduvaliev sintaktik to'siqsizlik maydoni, Sh. Iskandarovna til sistemasiga maydon asosida yondashuv, H.Hojieva o'zbek tilida hurmat maydoni, Ya.I.Avlaqulov onomastik maydoni haqida fikr yuritishganda bu atamadan foydalanganlar. Lekin maydon chegarasi hamda uning tuzilishi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan.[4]

Sh.Iskandarovna ham tilshunoslikda lingvistik maydon haqidagi turli qarashlarni jamlab, maydon tushunchasining mohiyatini ochib berdi: "Avvalo, mazmuniy maydon muayyan lingvistik

ILMIY AXBOROT

birliklarning ma'lum mazmuniy umumiylig' asosida bir butun tarkibiga birlashuvidir. Ana shu xususiyat mazmuniy maydonni paradigm tushunchasi bilan yaqinlashtiradi".[2]

XULOSA

Tadqiqotimiz shuni bayon etadiki, semantik maydon tushunchasi tilshunoslikda mazmuniy maydon yoki tushuncha maydoni deb ham atalishi mumkin. Semasiologiya tarkibida o'rganiluvchi ushbu nazariya, dastavval, jahon tilshunosligida tadbiq etilib, so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham keng ko'lamda o'rganilmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazmuniy yoki tushuncha maydoni ma'lum bir lisoniy birliklarning bir umumiyl guruhga birlashuvidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedova M, Rahimova Y. Maydon tushunchasi va turli tizimli tillarda "Ko'ngil leksik-semantik maydoni tadqiqi, Miasto Przyszlosci, Kielce, ISSN-L: 2544-980X, Vol.31, 2023. – B. 52-53.
2. Iskandarova. Sh.M. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 42-43, B. 83.
3. Ismoilova D.R. Turli tizimdag'i tillarda jinoyat semantik maydoni va uning lingvokulturologik tadqiqi, avtoreferat. Farg'on. – 2023. B. 11
4. Sanaqulov U, Ostonov O'. "Qutadg'u bilig" asari va undagi ijtimoiy-siyosiy leksik maydonining tadqiqi. Samarqand, 2018. – B. 36-38.
5. Trier Jost. Der Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes, Ph. D. diss. Бонн, 1931.
6. Umarova N, Karimova Sh, Mamatkulova H. Semantik maydon tushunchasi va "Vaqt" semantik maydoni tadqiqi. New innovations in National education, 2023. – B. 5.
7. Zoyerova N.T. Tilshunoslikda uyadosh so'zlarni semantik maydon guruhi asosida o'rganish. Central Asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022. B. 323. www.caajs.uz